

O‘ZBEKISTON – BMT MUNOSABATLARI (1991–2020 YILLAR): SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI

Raxmanov Nuriddin Ko‘chimbayevich
Osiyo Xalqaro Universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur magistrlik ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) bilan munosabatlari 1991–2020 yillar kesimida tizimli va davriy tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbekistonning BMTga a‘zo bo‘lishi, siyosiy-diplomatik hamkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi aloqalari, shuningdek, yoshlar va ekologik xavfsizlik masalalarida olib borgan faoliyati ilmiy asosda yoritilgan. Maqola xalqaro huquq normalari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezident asarlari, nutqlari hamda milliy va xorijiy ilmiy manbalar asosida tayyorlandi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, BMT, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, rezolyutsiya, xalqaro huquq.*

Kirish

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlar tizimiga integratsiyalashuvni tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Bu jarayonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik alohida strategik ahamiyat kasb etdi. BMT O‘zbekiston uchun global siyosiy muloqot maydoni, milliy manfaatlarni ilgari surish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashda muhim platforma bo‘lib xizmat qildi.

Asosiy qism

I. O‘zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan munosabatlari. BMT Bosh Assambleyasida muhtaram Prezidentimiz tomonlaridan mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik muammolarini hal etish yo‘l-yo‘rig‘i dunyo miqyosidagi muammolar bilan birga qo‘shib ochildi hamda O‘zbekistonning keng ko‘lamli hamkorlikka oid hamma takliflarida uni BMT faoliyati va bu tashkilotning ixtisoslashgan muassasalari orqali amalga oshirish tamoyillari ilova qilindi. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida jaxonning eng yuqori minbaridan turib, mustaqil O‘zbekiston tashqi siyosatining ma‘naviy yo‘nalishi insonparvarlik, insoniylik, oshkoralik, xurriyat, o‘z imkoniyatlariga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o‘z taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lishligini ta‘kidlab, bayon qildilar. Jumladan, Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday dedilar: «Biz butun jahon jamoatchiligiga Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni

azaliy qadriyatlarimiz mujassamligining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da’vat etadi”.¹

Jannatmakon yurtimizni tinchligi, muqaddas Vatanimiz ravnaqi dono xalqimiz salomatligi va farovonligi, muborak dinimiz kamoloti va masjid madrasalarimiz obodligi uchun muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev rahnamoliklarida hukumatimiz, Diniy idoramiz rahbariyati tomonlaridan oqilona olib borilayotgan xayrli, savobli ishlarni amalga oshirish maqsadida viloyatlarimiz rahbarlari hamda shahar, tuman rahbarlarining boshchiliklarida istiqbolimiz sharofati bilan mehnatkash xalqimiz ko‘p ishlarni amalga oshirdi va shu olijanob islohotlar hali hamon bajarilib kelinmoqda.¹

Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” degan turli balo-qazolarning xavf tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu muammoning naqadar o‘tkir va keskin bo‘lib turganini anglash qiyin emas.

Shu sababli o‘g‘il-qizlarimiz, ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, bunda jamoat tashkilotlari, birinchi navbatda, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining hissasi va ishtirokini kengaytirishga, yaqinda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun talablarining ijrosini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratishimiz lozim.²

Hech shubhasiz, Markaziy Osiyoning kelajagi — yoshlar qolida. Toshkent va Dushanbe shaharlarida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo yoshlar forumlarida qo‘shni davlatlarda yashayotgan navqiron avlod vakillarining qarash va intilishlari o‘xshashligiga, ularning ulkan intellektual salohiyatga ega ekanligiga yana bir bor guvoh bo‘ldik. Ularning ilgor tashabbuslari, ijodiy yondashuvlari va startap loyihalarini bundan buyon ham har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim.³

II. O‘zbekistonning BMTga a‘zo bo‘lishi va huquqiy asoslar (1991–1995)

1992-yil 2-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi BMTga teng huquqli a‘zo sifatida qabul qilindi. Ushbu voqea mamlakatning xalqaro huquq subyekti sifatida tan olinishi va davlat suverenitetining mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston BMT Nizomida belgilangan asosiy tamoyillar — davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish va inson huquqlarini hurmat qilishga sodiqligini namoyon etdi.

III. Siyosiy-diplomatik hamkorlik va mintaqaviy xavfsizlik (1991–2020)

Mazkur davrda O‘zbekiston BMT doirasida mintaqaviy xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash va tinchlikni mustahkamlash masalalarida faol ishtirok etdi. Afg‘oniston muammosini tinch yo‘l bilan hal etish, Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta’minlash

masalalari BMT minbarida ilgari surildi. O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholandi.

Biz qat'iy ishonamiz - Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rin tutadi. O'zbekiston ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilishi tarafdoridir. O'zbekiston Xavfsizlik Kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirish bo'yicha o'z pozitsiyasida sobit turadi. 1

IV. Ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar hamkorlik (2006–2015)

Ushbu bosqichda O'zbekiston va BMTning ixtisoslashgan muassasalari o'rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada kengaydi. UNICEF, UNESCO kabi tashkilotlar bilan qo'shma loyihalar amalga oshirildi.

V. Ekologik muammolar va Orol dengizi masalasi (2010–2020)

O'zbekiston Orol dengizi fojiasini BMT doirasida global ekologik muammo sifatida ilgari surib keldi. Orolbo'yi mintaqasida aholi turmush darajasini yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan dasturlar amalga oshirildi.

Ushbu masala xalqaro hamjamiyat e'tiborini tortgan muhim ekologik tashabbuslardan biri bo'ldi.

VI. O'zbekiston- BMT hamkorligining ilmiy-nazariy tahlili

Akademik Akmal Saidovning ilmiy qarashlarida O'zbekistonning BMT bilan munosabatlari xalqaro huquqiy legitimlik va inson huquqlarini himoya qilish bilan uzviy bog'langan holda tahlil qilinadi. Uning asarlarida O'zbekiston tashqi siyosatining BMT doirasidagi o'rnini ilmiy asosda yoritilgan.

Xulosa

1991–2020 yillar davomida O'zbekiston va BMT o'rtasidagi munosabatlar izchil va bosqichma-bosqich rivojlandi. Ushbu hamkorlik mamlakatning xalqaro nufuzini oshirish, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va global muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining samarali faoliyat yuritishidan dunyodagi barcha davlatlar, xoh u katta xoh kichik, xoh rivojlangan va rivojlanayotgan davlat bo'lsin, manfaatdordir. Xususan, O'zbekiston kabi Markaziy Osiyodagi yetakchi davlatlar ham shular sirasiga kiradi. Xalqaro munosabatlarning hozirgi rivojlanish bosqichida BMTning tutgan o'rnini va ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT minbaridan turib dunyo yoshlarini himoyasiga o'tlanib bildirgan takliflari dunyo jamoatchiligini lol qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 386-bet. Toshkent "O'zbekiston" 2017.

2. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 403-bet. Toshkent, 2022.
3. Mirziyoyev.Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. 437-bet. Toshkent, 2022.
4. Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 20217-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi so‘zlagan nutqi
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi materiallari.
6. Inomov.I. BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI VA O‘ZBEKISTON . Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqod markazi. Bukhari.uz internet nashri - 02.03.2022
7. ARM-1503. Xalqaro mintaqashunoslik. Toshkent, 2017.
8. Saidov A.X. Xalqaro huquq va inson huquqlari. Toshkent, 2019.